



MUQANNA SHAXSIYATI BORASIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Bahodir Aminov

Tel:938997060 bahodirotabekovich2@gmail.com

Annotatsiya: Muqanna shaxsiyatiga turli tarixchilar va turli insonlar tomonidan beriladigan har xil tasniflar va tariflar mavjuddir. Ammo, Ularning hammasi ham haqiqatga yaqin yoki uzoq deya ayta olmaymiz. Shunga qaramasdan ayrim tarixiy asarlar va tarixiy shaxslarning esdalik yozuvlari Muqanna shaxsiyatining realikka yaqin bo'lgan tasvirlovchilaridir.

Abstract: The person of Muqanna has been given different classifications and rates by different historians and different people. However, we cannot say that all of them are close or far from the truth. Nevertheless, historical works, memories of historical figures are the most realistic depiction of Muqanna's personality.

Абстрактный: Существуют разные классификации и тарифы личности Муканны разными историками и разными людьми. Однако нельзя сказать, что все они близки или далеки от истины. Тем не менее, некоторые исторические произведения и мемуары исторических деятелей близки к реальным описаниям личности Муканны.

Kalit soʻzlar: Muqanna, paygʻambar, qoʻzgʻalon, Xuroson, Hoshim Ibn Hakim.

Key words: Muqanna, the prophet, revolt, Khorasan, Hashim Ibn Hakim.

Ключевые слова: Муканна, пророк, восстание, Хорасан, Хашим ибн Хаким.

Muqanna (taxminan 719-yil Marv yaqinidagi Koza qishlogʻi — 783-yil Shahrisabz) Al-Muqanna Marvlik Hoshim ibn Hakim ismli etnik Fors edi, asli kiyim tikuvchi edi. Xurosonlik Abu Muslimga qoʻmondon boʻldi. Abu Muslim oʻldirilgandan soʻng, Al-Muqanna oʻzini Xudoning timsoli deb da'vo qildi, bu rol unga Abu Muslimdan oʻtgan, u buni Ali orqali Muhammad paygʻambardan olgan. Al-Muqanna oʻzining goʻzalligini yashirish uchun roʻmol kiyish bilan mashhur edi.¹ Hakim ham uning oʻz ismi boʻlganligi aytiladi, baʼzilar esa forscha shaklini “Donishmand Hosem” deb ataganlar. Narshaxiyning yozishicha, “U koʻp oʻqigan, gʻoyat ziyrak boʻlib, kimyogarlik, sehr va tilsim ilmlarini oʻrgangan. Arab, fors tillarini yaxshi bilgan. Bir koʻzi koʻr, boshi kal va basharasi xunuk boʻlganligidan boshi va yuziga koʻk parda tutib yurgan. Shuning uchun ham "Muqanna", yaʼni "Niqobdor" laqabi bilan mashhur boʻlgan”. Yaʼqubiyning tasvirlashicha, Muqannani “Hoshim ul-aʼvar” yaʼni “bir koʻzli Hoshim” deb ham ataganlar. Muqanna yoshlik chogʻida kudungarlik (matolarga ohor beruvchi) kasbi bilan shugʻullangan. Xuroson noiblaridan Abu Muslim davrida sarhanglik (kichik lashkarboshi) va Abduljabbor Azdiy davrida (757—759) esa vazirlik darajasiga koʻtarilgan. Muqanna «menda Allohning husni tajaliy etadi, agar yuzimni ochsam, uning nuri koʻzlaringizni koʻr qiladi» deb odamlarni ishontirgan. Shu bois uni Marvdan Bagʻdodga olib kelib, bir muddat zindonga tashlashadi. Zindondan chiqqach yana Marvga qaytib, odamlarni yoʻldan urishga, oʻzining

¹ www.en-academic.com



payg'ambarligiga ishontirishda davom etdi. Uning ta'limotiga ko'ra, Alloh dastlab Odam atoni yaratib o'zi uning tanasida zuhur etgan. Keyin uning ruhi Nuh, Ibrohim, Muso va boshqa payg'ambarlar jismga ko'chib o'tgan. «Ayni paytda Xudo menman, Xudo mening tanamdadir» deb da'vo qila boshlagan.² Yana bir boshqa manbaa "Tarih-e Bohara"da yozilishicha, Muqanna o'z xo'jayini Abduljabbor hokimyatdan qulagandan so'ng bashorat qilishni boshlagan va Iroqda bir muddat qamoqda o'tirgan, lekin oxir-oqibat Marvga qaytib, u yerda Qozo qishlog'ida yashagan va u yerda ishlagan. u erda yana va'z qilishga, shuningdek, harakatni tashkil etishga kirishdi. Humayd Qahtaba 768-769 yillarda Xurosonga hokim bo'ldi, u Mo'qanna'ni hibsga olishni buyurdi, keyin yashirinib ketdi va keyinchalik uning tarafdorlari uning uchun ba'zi joylarni egallab olishganidan so'ng Mavarounnahrda o'tib ketdi. Bir safar, bizga aytilishicha, Moqanna' pardasini yechgan³. Moqanna'ning qaynotasi marvlik arab bo'lib, u Muqanna uchun missionerlik harakati bilan shug'ullanganligi aniq aytiladi. Said al-Xaroshiy bu odamni qo'lga olib, Muoviyaning qorashiy ittifoqchisining avlodi sifatida tasvirlagan va uning yuziga tupurgan.⁴ Ba'zi manbalarda Muqannaga "Ta" nomi berilgan, ammo yaqinda topilgan tangalar Hoshim ismini tasdiqlaydi. U asli Forsning qadimgi Xuroson viloyatidagi Marv-mru shahridan bo'lgan. Al-Muqanna zardushtiy neo-Mazdakiy kommunistik e'tiqodlarini Islomning ba'zi aqidalari bilan aralashtirib, o'z isyonini boshladi. Shuningdek, u o'z izdoshlari tomonidan sehr yoki mo'jiza sifatida qabul qilingan ba'zi hiyla-nayranglarni qiladi, Har doim yuzini berkitgani uchun uni Al-Muqanna (Pardali) deb atashgan. Ba'zilar uni tilla niqob bilan qoplangan desa, boshqalari yashil ipak parda ekanligini aytadi. Uning izdoshlari uning yuzini yopib qo'yganini, chunki u o'lik odamlar ko'ra olmaydigan darajada yorug' ekanligini da'vo qilishadi, raqiblari esa uni kal, bir ko'zli va mutlaqo xunuk deb da'vo qilishadi.⁵

Bag'dodiyning ma'lumotiga ko'ra, Muqanna islom taqiqlagan hamma narsani "halol" qildi va "ta'qiq" so'zini umuman ta'qiq'ladi. Muqanna avvaliga o'z ta'limotini Xurosonda yoymoqchi edi, ammo uning orqasidan u yerda hech kim ergashmadi. Narshaxiy Muqanna diniga kirganlar haqida ba'zi ma'lumotlarni keltiradi. U yozadi: "Ular o'zlari Muqannaning kim ekanligidan butunlay xabarsiz bo'lsalar ham uning dinidalar". "Xotin xuddi gulga o'xshaydi, uni kim hidlasa ham (baribir) kamayib qolmaydi - deb xotinlarni bir-birovlariga halol hisoblaydilar. Biror kishi biror xotinnng oldiga xilvatga kirganida uy eshigida belgi qoldiradi; u xotinning eri kelib qolgudek bo'lsa, xotini uyda boshqa kishi bilan birga ekanligini bilib qaytib ketadi va u kishi xilvat ishidan forig' bo'lgandan keyingina o'z uyiga kiradi. Aytishlaricha, har bir qishloqda bittadan (tayinlab qo'yilgan) kishi bo'lib, shu qishloqda kimki biron qizga uylanmoqchi bo'lsa, qizning bakoratini(qizligini) avval o'sha kishi oladi, shundan keyingina qizni eriga topshiradilar. Qayerda xushro'y xotin bo'lsa, unga xabar berar edilar va Muqanna uni oldirib kelib o'zi bilan birga saqlar edi".⁶ Ko'pgina

² Rustam Jabborov, O'zA.

³ Abu'l-Ma'aliy, 59-60-betlar

⁴ www.iranicaonline.org

⁵ www.baheyeldin.com

⁶ Narshaxiy."Buxoro tarixi". 42-bet.



shaharlar unga ergashgan, ba'zi manbalarda ularning soni 60 tagacha yetgan. Kesh yaqinidagi Sanam qal'asi qo'zg'olonchilarning tayanchiga aylanadi.

Uning qo'zg'oloni karvonlarni talon-taroj qilish, masjidlarni talon-taroj qilish va musulmonlarni o'ldirishdan iborat edi. U nafaqat bid'atchi, balki tinchlikka tahdid va Bag'dod xalifalarining markaziy hokimiyatiga da'vogar bo'ldi. Al-Muqanna tangalari ham topilgan. Tangalarning bir tomonida kufiy yozuvida "Alloh vafo va adolatga buyurdi", ikkinchi tomonida "Hoshim vali Abi Muslim (مسلم أبي ولي هاشم)" ma'nosi: Abu Muslimning vasiysi Hoshim.) deb yozilgan.⁷ Al-Muqanna' Abu Muslimni Mahdiy deb da'vo qilgan va uning o'limini inkor etgan "Xurramiya" mazhabining shakllanishida muhim rol o'ynadi. Al-Muqannaning izdoshlari boshqa musulmonlarning shaharlari va masjidlariga bostirib kirib, ularning mol-mulkini talon-taroj qila boshlaganlar.⁸ Tabiiyki, Muqanna tarafdorlarining kundan-kunga ortishi Abbosiylarni tashvishga solishi aniq edi. Ammo, Muqannaning tarafdorlari uning himoyasi uchun jonlaridan kechishga shay turishardi. 783-yilda Abbosiylarning Hirotdagi noibi Said Xarashiy katta lashkar bilan Muqanna qal'asini qamal qiladi. Tog' tepasidagi qal'aga biror bir askar tirmashib chiqqa olmas edi. Biroq, uzoq vaqtlik qamalga dosh berolmagan Muqannaning ko'plab xos soqchilari qal'adan chiqib, arablar musulmonlarga taslim bo'ladilar. Muqanna esa, qal'a ichida faqat ayollar bilan qolgandi. Muqanna o'sha onda avval ayollarini, keyin o'zini o'ldirishni niyat qiladi. U avvaliga xizmatkorlariga qal'a ichidagi tandirga olov yoqib qizitishni buyuradi. Uch kun tandir obdon qiziydi. U ayollariga sharob tutib, ularga yashirincha zahar soladi. Faqat birgina ayol sharobni ichmasdan yoqasining ichiga to'kib yuboradi. Ayollar bari sharobni ichishi bilan yerga yiqiladi. Haligi ayol ham o'zini o'lganga soladi. Muqanna tirik qolgan xizmatkorini ham o'ldirib, o'zini qizib turgan tandirga tashlaydi. Tabariyning yozishicha, Muqanna so'nggi kunlarida musulmon qo'shiniga asir tushsa, nechog'li azoblarga duchor bo'lishini bilib xorlikdan ko'ra o'limni afzal ko'rgan. "Haramidagi 104 xotiniga bazm vaqtida piyolalariga zahar solib bergan va o'zi ham zahar ichib o'lgan". Tabariyning zamondoshlari Balazuriy va Ibn Tayfur asarlariga tayangan Luis Barxes esa, Muqanna qal'a devori ustiga ko'zgu linzali qurolini tayyorlab, quyosh chiqishini kutib turganida, o'lmay qolgan bir xotini uni fosh etgan va erining yuzi oqligini aytib qo'yg'an. Muqanna safdoshlaridan ikkitasi uning oldiga ta'zim qilishga borganday, yaqinlashib, niqobini ochib tashlagan va yuzini ko'rib, qo'rqib ketishgan. Muqanna boshi evaziga o'z jonlarini saqlab qolishga uringan ayrim safdoshlari uni nayzalari bilan o'ldirganlar. Muqannaning o'zini qizib turgan olovga tashlashi haqidagi rivoyat keyinroq to'qilgan bo'lsa kerak.⁹ Abu Rayhon Beruniy o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida shunday ma'lumotlarni beradi: "U Muqanna Amudaryo orqali Kash Kesh va Nasaf tomonlariga o'tdi. Xoqonga xat yozib, undan yordam so'radi, "oq kiyimliklar" va turklar uning atrofiga yig'ildilar, Muqanna ularga boshqalarning mollari va xotinlarini halol qildi, qarshilik ko'rsatganlarni o'ldirdi va

⁷ www.baheyeldin.com

⁸ www.en-academic.com

⁹ Mahkam Mahmud, Sharofiddin To'laganov. O'zA-Muqanna ta'limoti parda ostida.



Mazdakning barcha yo'l-yo'riqini ularga qonun qilib berdi, al-Mahdiy qo'shinini sindirdi va o'n to'rt yil hukmronlik qildi. Nihoyat u hijriy 169-yili qamal qilindi va o'ldirildi".¹⁰

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Muqanna aslida kimdegan savolga aniq va yakdil bir javob berish qiyin. Bir tomondan u Arab bosqinchilariga qarshi kurash olib borgan, boshqa tomondan esa qisman yoki to'liq o'z shaxsiy manfaatlari yo'lida bu kurashdan foydalangan. Muqannaning shaxsiyatiga va uning aslida vatan himoyachisimi yoki o'z manfaaatlarini o'ylovchi shaxsmi degan savolga javob beradigan bo'lsak yuqorida keltirib o'tilgan tarixiy hujjatlar, asarlar va ayrim izlanuvchilarning fikrlaridan kelib chiqqan holda aytishim mumkinki Muqanna shaxsi biz eshitganimiz yoki ayrim joylarda o'qiganimiz kabi ijobiy emas. Yuqorida keltirib va takidlab o'tilgan fikr-mulohazalar va asarlar buning yaqqol isbotidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBAALAR RO'YXATI:

1. Mahkam Mahmud, Sharofiddin To'laganov. O'zA-Muqanna ta'limoti parda ostida.
2. Narshaxiy, "Buxoro tarixi". 42-bet
3. Abu Rayhon Beruniy. "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar". Toshkent-1968
4. Abu'l-Ma'aliy, 59-60-betlar
5. Rustam Jabborov, O'zA
6. www.en-academic.com
7. www.iranicaonline.org
8. www.baheyeldin.com

¹⁰ Abu Rayhon Beruniy. "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar". Toshkent-1968